

## GADOIY VA LUTFIY ASARLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Pardayeva Ruxsora Saidahmad qizi**

O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

[ruxsorapardayeva61@gmail.com](mailto:ruxsorapardayeva61@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20726884>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillari Gadoiy va Lutfiy asarlarining til xususiyatlari tahlil qilindi. Shoirilar ijodidagi leksik va grammatik birliklar, arab-fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar, qadimgi turkiy til unsurlari hamda ayrim morfologik shakllarning qo‘llanishi yoritiladi. Shuningdek, ikki ijodkor asarlarining o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** *Gadoiy, Lutfiy, Devoni gado, leksik qatlam, So‘z chamani, adabiy meros, qadimgi turkiy til, o‘zbek adabiy tili, g‘azal, tuyuq.*

**Kirish.** Gadoiy va Lutfiy turkiy adabiyot tarixida muhim o‘rin egallagan ijodkorlardir. Xususan Gadoiy XV asr o‘zbek mumtoz she‘riyatining yorqin namoyandasi bo‘lib, asosan turkiy va qisman fors tilida g‘azal, qit‘a, tuyuq, mustazod hamda qasidalar yaratgan. Shu bilan bir qatorda, Lutfiy ham XV asr o‘zbek adabiyotiga, o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, asosan turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan hamda o‘zbek tilidagi she‘rlari bilan shuhrat qozongan. Shuningdek, bu ikki so‘z ustalari Alisher Navoiydan avvalgi davrda eski o‘zbek tilida, ya‘ni chig‘atoy tilida g‘azaliyotni yuksak cho‘qqiga ko‘targan. Har ikki zullisonayn ham g‘azallarni xalqona, tushunarli tilda va mushoira kechalariga mos ohangda yozgan. Gadoiy bizgacha yetib kelmagan “Gul va Navro‘z” dostoni bilan tanilgan bo‘lib, shoirning yagona devoni – “Devoni Gado” Parijdagi “Bibliotique Nationale” (“Milliy kutubxon”)ning “Turk qo‘lyozmalari bo‘limi”da saqlanib kelinmoqda. Gadoiy ijodi va uning boshqa devoni haqida deyarli ma‘lumotlar uchramaydi. Uning devoni XV asr devon tartib berish an‘anasiga binoan tarkib topgan, ya‘ni arab alifbosi asosida g‘azallar ketma-ketlikda joylashtirilgan. Shoir ilmiy-adabiy merosini chuqurroq o‘rganish maqsadida Erkin Ahmadxo‘jayev “Gadoiy” nomli monografiyasini yozgan. Monografiyada shoir g‘azallarini badiiy san‘atlar va mavzular nuqtayi nazardan zamondoshlari Lutfiy ijodi bilan qiyosiy yoritilgan. Lutfiy esa o‘z zamonasining “Malik ul-kalom” (so‘z podshosi) nomi bilan shuhrat qozongan, uning hayot yo‘li singari, ijodiy taqdiri ham juda ibratli: u 99 yil yashagan. Umrining asosiy qismi o‘qish, o‘rganish va badiiy ijod mehnati bilan o‘tgan. Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida ma‘lumot berilishicha, Lutfiy umrining oxirlarida «oftob» radifli bir she‘r yozgan, o‘sha zamonning ko‘p shoirlari unga tatabbu‘ qilganlar, ammo ulardan hech biri Lutfiyning «panjasiga panja» ura olmaganlar. Lutfiy ham zohiriy-dunyoviy, ham diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan, davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma‘rifatga sodiq ijodkor edi. Ikkinchidan, Lutfiy she‘riyat bilan tariqatni, majoz bilan haqiqatni uyg‘unlashtirgan edi. Xuddi shu narsa uning nafaqat o‘z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko‘tarilishiga bir asos bo‘lgan.

**Asosiy qism.** Gadoiy asarlarining til xususiyatlari tahlili doirasida uning she‘riyatida til soddaligi va xalq poetik me‘yorlariga yaqinligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir asarlarida eski turkiy adabiy tilga oid *ilik, el, cherik, ev, ko‘rk, asru, dudaq* kabi so‘zlar uchraydi. Shuningdek, *surat, rahm, kofir, habib, raqib, balo, devona, jahon, xasta, shaydo* kabi arab va fors-tojik tilidan kirgan birliklar ham faol qo‘llangan. Gadoiy asarlarining grammatik xususiyatlari tarkibida jo‘nalish kelishigining *-a, -ä, -ğa, -gä, -kä, -qa, -na* shakllari, tushum kelishigining *-ni, -ni, -n, -in, -in* shakllari va chiqish

kelishigining *-din* shakli va sifatdoshning *-miş, -gän, -ğän, -qan*, ravishdoshning *-b*, shart maylining *-sa, -sä*, kelasi zamonning *-gäy, -ğay* hamda buyruq maylining *-sun* affiksleri ishlatilgan bo‘lib o‘xshatish, murojaat birliklari, takrir va antiteza kabi badiiy vositalar uchraydi. Shoirning *“Ohkim, devona ko‘nglum, muhtalo bo‘ldi yana...”* g‘azalidagi:

*Ohkim, devona ko‘nglum muhtalo bo‘ldi yana,*

*Bu ko‘ngulnung ilgidin jong‘a balo bo‘ldi yana.*

*Do‘stdin oyirdi bu charxi jafo gustar yana,*

*Ey darig‘o, hojati dushman ravo bo‘ldi yana*

baytida *-ning* qaratqich kelishigi *-nung* shaklida, *-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchasi *-din* shaklida yozilgan.

Uning adabiy merosida badiiy bo‘yoqdorlik ustun hisoblangan. Sababi zullisonayn shoir har ikki tilda ham birdek foydalanishning uddasidan chiqqan. Masalan, Gadoiy dostoni leksikografiyasida ishq-muhabbatga tegishli so‘zlar bisyor. Muhabbat mavzusidagi g‘azallarida shoir o‘zining ko‘p yillik hayoti, taqdiri va qismati, ijtimoiy-siyosiy masalalar, zamonadan norozilik va shikoyat motivlari, inson va uning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan din va uning aqidalari haqida shoir o‘z munosabatini bildirishga harakat qilgan. Umuman shoir inson hayotida sevgi - dunyoda yashashi uchun mazmuni, rohati deb biladi. Chunki uning g‘azallarida ishqsiz hayot kechiradiganlarni jonsiz suratga o‘xshatishi ham bejizga emas:

*Har kishiningkim seningdek bir sevar jononi yo‘q,*

*Filmasal, bir suratedurkim, taninda joni yo‘q*

baytini misol keltirishimiz mumkin. Gadoiy ishq masalasi deganda faqatgina yorga bo‘lgan sevgini emas, balki Yaratgan Zotga bo‘lgan ishqni ham birvarakayiga yetkizadi. Xalqni din masalasi bo‘yicha fikrini o‘zgartirishga harakat qiladi. Inson va uning aql-zakovatini, tafakkurini yuksak baholaydi. Shoir odam va uning avlodini dunyoda eng go‘zal deb hisoblaydi. Bunga:

*Topmadim har nechakim kezdim zarofat mulkini*

*Sen parivash hurdek avlodi odamdin zarif*

baytini misol qilib bergan. Uning devoniga joylangan g‘azal, mustazod, qit‘a va boshqa janrlarda foydalanilgan so‘zlar arabiy, forsiy, turkiy tillarning boy leksik qatlamlaridandir. Bu so‘zlar tilshunoslik tahlili natijasida sinonimik, antonimik hamda omonimik munosabatlarni hosil qilgan. Misol uchun, *“sevgili yor”* ga murojaatlarida *yor, mahbub, dilbar, nigor* kabilar, ayriliqdan azob chekkan shoir misralarida *hijron, firoq, otash, ayriliq o‘tida* qolgan insonga qiyoslaydi. Shu o‘rinda Gadoiy badiiy mahoratini ham ko‘rsatib o‘tadi. Antonimlik qatorini yuzaga keltirgan so‘zlardan: *husn-qabohat, visol-hijron, yor- ag‘yor, shoh-gado* singari so‘zlarni ifodalaydi. Paronimlik qatorini yuzaga keltirgan so‘zlarga Gadoiyning

“ Gul va Navro‘z” dostonidan keltirilgan baytni misol keltirish mumkin:

*Uzori aksidin oy xiyra bo‘lg‘ay,*

*Yuzi o‘trusida kun tiyra bo‘lg‘ay*

Bunda *“xiyra”* hamda *“tiyra”* so‘zlari paronimlikni hosil qilgan. *Xiyra* – mumtoz adabiyotimizda 2xil ma‘noni ifodalab kelgan, ya‘ni omonimlik xususiyatiga ega:

1 – Xira tortish ( fe‘l so‘z turkumi )-“ *Ko‘zning xiralashishi, nursizlanishi*” ma‘nosida qo‘llaniladi. Birinchi misrada aynan “oyning xiralashishi” nazarda tutilgan.

2 – O‘jar, qaysar, sho‘x ( sifat so‘z turkumi ) – bu ma‘noda ko‘pincha *“xiyra kishi”, “xiyra fe‘lli”* birikmalari qo‘llanilgan.

Ikkinchi misrada “tiyra” so‘zi “qora, qorong‘i” ( sifat so‘z turkumi ), “qorong‘i bo‘lmoq” ma’nosini ifodalab kelgan.

Lutfiy xalqning jonli tilidan unumli foydalangan va xalq maqollarini she’riy misralarga singdirgan. Uning she’rlarida radif va ohangdosh so‘zlardan mahorat bilan foydalanilgan. Shoir asarlarida qadimgi turkiy tilga mansub *ilik, ulus, qamug‘, irin, ujmag‘, ev, cherik* kabi birliklar uchraydi. Leksikaning 55 foizdan ortig‘ini turkiy so‘zlar tashkil etadi. Lutfiy tilida eski uyg‘ur, ozarbayjon va turkman tillariga xos ayrim morfologik-leksik xususiyatlar ham mavjud bo‘lgan. Lutfiy asarlarining grammatik xususiyatlari orasida jo‘nalish kelishigining *-a, -kä, -gä, -na, -g‘a* shakllari, tushum kelishigining *-ni, -ni, -i, -in, -in* shakllari hamda chiqish kelishigining *-din* va *-din* shakllari Gadoiy izlanishlari bilan bir xil. Egalik qo‘shimchalari *-üm, -ung* ko‘rinishlari, buyruq maylining *-sün, -güz*, istak maylining *-qay, -g‘ay, -gäy* shakllari bilan Gadoiy ijodidan farq qiladi. Badiiy jihatdan esa o‘xshatish, mubolag‘a, uyadosh so‘zlar va antiteza kabi vositalardan foydalanilgan. Lutfiyning “So‘z chamani” kitobida uning boy adabiy merosi jamlangan. Ushbu kitobda Lutfiyning:

*Garchi qurutmas ko‘zumning yoshini,*

*Haq uzun qilsun ul o‘yning yoshini.*

*Yig‘lama ko‘p, bu vujudning ishq o‘ti*

*Ne qurug‘in qo‘yg‘usi, ne yoshini*

tuyug‘ida 1-misradagi “yoshini” so‘zi “ ko‘z yoshi” ma’nosida ot so‘z turkumi, 2-misrada “yoshi”, ya’ni fe’l so‘z turkumi bo‘lib, muloqotda “*umr ko‘rish, yashamoq*”, “*yosh-u qari*”( sifat) tarzida qo‘llanilib keladi. 4-misradagi “yoshini” so‘zi umri, yoshi ma’nosini yuzaga keltirish bilan bir qatorda omonimlik da kelgan. Lutfiy she’rlari Alisher Navoiygacha yaratilgan o‘zbek mumtoz adabiyotining g‘oyaviy va badiiy jihatdan, o‘ziga xos uslubinuqtai nazaridan eng yuksak na’munalari sanaladi. Shoir, ayniqsa, g‘azalnavislikda shuhrat qozonadi. Shuningdek, turkiy adabiyotda tuyuq janri bo‘yicha munosib hissa qo‘shdi. Lutfiy ijodida ham Gadoiy ijodi singari Parvardigorning yaratuvchanlik xususiyatini ochib berishga harakat qilgan. G‘azallarida foydalangan husn va go‘zallik bobidagi so‘zlari ham antonimlik, ham sinonimlik qatorini ochib bergan. Masalan, go‘zallikni tasvirlashda husn, jamol, chiroy, chehra, ruxsor, dudoq, gisu, kokil so‘zlari bilan bergan.

*Zotinda Haq izhori kamolot qilibtur,*

*O‘z nuri bilan suratingizni yaratubtur*

misrasida “*Haq*” so‘zi Alloh ma’nosida qo‘llanib, *Tangri, Parvardigor* kabi undalmalardan foydalangan. Bu holat Lutfiy tilining leksik boyligi va tasavvufiy-estetik qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Gadoiy va Lutfiy ijodi turkiy adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Ularning asarlari xalqona ruh, sodda va tushunarli til bilan ajralib turadi. Har ikki shoir turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, o‘zbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Xalqona iboralar, jonli tasvirlar va chuqur ma’no uyg‘unligi ularning ijodini bugungi kunda ham ahamiyatli qilib turadi. So‘z boyligi va bejirimliligi bilan ularning asarlari tengsiz kitoblar qatoridan o‘rin olganligi ham bejizga emas. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Lutfiy hozirgacha g‘azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an’analar bilan xalq og‘zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Tadqiqot davomida Gadoiy va Lutfiy asarlarida qo‘llangan leksik birliklar semantik jihatdan tahlil qilinib, sinonimik, antonimik hamda omonimik munosabatlar aniqlandi. Ayniqsa, husn va ilohiylikni ifodalovchi so‘zlarning keng qo‘llanishi shoirlar badiiy tafakkurining o‘ziga xosligini namoyon etadi. Lutfiy ijodida ilohiy ishq va

tasavvufiy mazmun yetakchilik qilsa, Gadoiy she'riyatida dunyoviy ishq va insoniy kechinmalar tasviri ustunlik qilgan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Ahmadxo'jaev E. Gadoiy ( Hayoti va ijodiy merosi). – T.: Fan,178.
2. Hayitmetov A. O'zbek tili va adabiyoti, 2002.- №1. – B. 71.
3. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Т., 1982.
4. Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси. Т., 1989.
5. Lutfiy. So'z chamani, T.:2020.
6. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Т., 1963.
7. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т., 1973.
8. Жумаев А. XV аср номалари тили лексикасининг қиёсий таҳлили. Т., 1994.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)